

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

DAVLAT TILINI (O'ZBEK TILI) O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Asamatdinova Zulfiya

*Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Davlat tili darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va tinglab tushunish, o'qib tushunishga doir ko'nikmalarini shakllantirish xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, gap, matn tarkibi, matndagi gaplarni ajratish, yosh xususiyatlari, nutq rivoji, pedagogik texnologiyalar, matn, metodika.*

Abstract:

This article presents ideas about developing students' speech, listening comprehension, and reading comprehension skills by working on the text in the State language classes.

Key words: *speech culture, sentence, text composition, separating sentences in the text, age characteristics, speech development, pedagogical technologies, text, methodology.*

Zamonaviy ta'lim tizimining maqsadi – ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, shuningdek, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatiga, ta'lim mazmuniga, ta'lim oluvchilar va ularning tayyorgarlik darajasiga, ta'lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o'quv yuklamasi va faoliyati hajmiga va baholash mexanizmlariga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib har bitta pedagog zimmasiga o'ta muhim ma'suliyat yuklanmoqda. Ayniqsa, davlat tili fani o'qituvchilar ushbu ma'suliyatni chuqur anglagan holda harakat etmoqlari lozim. Rivojlanayotgan davr bizdan yana ham kuchli metodika va mahorat talab qilar ekan biz ustozlar o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz shart. "Dunyo tajribasida e'tirof etilayotgan til o'rganishga doir tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalari o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va baholash imkonini berayotgani ko'pchilik davlatlarda tan olingan. Jumladan, mamlakatimizda ham chet tili o'qitishda o'z samarasini bermokda." [1,3] Davlat tili darslarida matnlar bilan ishlash, grammatik tahlil qilish, fikr mulohaza yuritish asosiy va muhim ahamiyatga ega. Insoniyatning ijtimoiy siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan – bir imkoniyat – matn va yaratish ilmi bilan shug'ullanishdir. Demak til imkoniyat, matn esa natijadir; matn egallagan bilim, ko'nikma va malakalar hosilasi Davlat tili ta'limida matn yaratish va matn ustida ishlash usullari bag'oyat xilma – xildir. Ushbu maqola orqali ta'lim jarayonida matn bilan ishlashning bir nechta usul va vositalari haqida so'z yuritamiz. Dars jarayoni qiziqarli va maroqli bo'lishi uchun o'quvchilarga turli xil mavzudagi matnlar taqdim etilishi lozim. Til o'rgatish bilan birga olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitib borish zarurati mavjud ekan, matnlarni ham shunga monand tanlash zarur.

1-topshiriq. "G'aroyib kasblar" nomli matnni taqdimot orqali qo'yib beriladi, o'quvchilar taqdimotdagi matnlarni o'qib bo'lgach savollarga javob berilishi lozim.

		
<i>Bu kasbni aniq oddiy deb aytib bo'lmaydi. Taxminan 90-yillar oxirida AQShda buqalar poygasi keng tanila boshlagan. Chavandoz atigi 8 soniyalik chiqishi uchun katta summani qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan. Statistika ko'ra, reyder har 15 chiqishida taxminan 1 marta jiddiy jarohat olar ekan.</i>	<i>Mutaxassis o'z kunini xavfli ilonlar bilan birga o'tkazib, ularning zaharini qo'lda tortib oladi. Keng ko'lamli xavfsizlik choralariga qaramay, doim qandaydir kutilmagan ko'ngilsizliklar ro'y berib turadi.</i>	<i>Juda qiyin va xavfli ish. Konchilar hatto barcha xavfsizlik tizimlari bilan ta'minlangan sharoitlarda ham o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi. Ularga har kuni xavf soya soladi: katta chuqurlik, atrofdagi yuqori harorat, portlashlar, ko'chkilar, metan va gazdan zaharlanish ehtimoli 70 % eshitishga yordam bergan.</i>

Bu kasbni aniq oddiy deb aytib bo'lmaydi. Taxminan 90-yillar oxirida AQShda buqalar poygasi keng tanila boshlagan. Chavandoz atigi 8 soniyalik chiqishi uchun katta summani qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan. Statistika ko'ra, reyder har 15 chiqishida taxminan 1 marta jiddiy jarohat olar ekan.

Mutaxassis o'z kunini xavfli ilonlar bilan birga o'tkazib, ularning zaharini qo'lda tortib oladi. Keng ko'lamli xavfsizlik choralariga qaramay, doim qandaydir kutilmagan ko'ngilsizliklar ro'y berib turadi.

Juda qiyin va xavfli ish. Konchilar hatto barcha xavfsizlik tizimlari bilan ta'minlangan sharoitlarda ham o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi. Ularga har kuni xavf soya soladi: katta chuqurlik, atrofdagi yuqori harorat, portlashlar, ko'chkilar, metan va gazdan zaharlanish ehtimoli 70 % eshitishga yordam bergan.

O'quvchilar matn bilan tanishgach, o'qituvchi ularga quyidagi savolni beradi"

1.Savol.Kelajakda qanday kasblar yo'q bo'lib ketishi mumkin?

2.Kelajakda yana qanday kasblar paydo bo'lishi mumkin deb hisoblaysiz?

Bu savollarga o'quvchilar og'zaki javob berishlari mumkin.

Nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirishda, aforizmlar, ibratli matnlar bilan bir qatorda ilmiy, publitsistik matnlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, o'quvchilarga mashg'ulotlar davomida ilmiy, ilmiy-ommabop matnlar ustida ishlashga ham alohida e'tibor berish lozim. Matnga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari bir paytning o'zida tinglab tushunish, o'qib tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantira olishi maqsadga muvofiqdir. O'tgan uzoq davr mobaynida biz rus tilidan o'quvchilarning, asosan, bilimni baholab keldik. Aslida hayotiy vaziyatlarda o'quvchilardan ko'proq ko'nikma va malakalar talab qilinadi, shu ma'noda rus tili ta'limida rivojlantirilishi ko'zda tutilayotgan nutqiy ko'nikmalarni baholashni ham tizimlashtirish zarur.

Til o'qitishda mashq va topshiriqlar farqlanishi lozim, nutqiy ko'nikmalar mashq orqali shakllanadi. Yangi o'qitish metodikasida matndan foydalanish, unga mos zamonaviy topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish va qo'llash mexanizmi, foydalanish metodikasi yaratilishi kerak. Bu o'rinda G'.Hamroev ta'kidlagani kabi o'quv topshiriqlarini – "savol" "mashq" va "topshiriq"

atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyatini anglagan holda ishlab chiqish vazifasi ham mavjud.[2,43].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlati tilini o'qitish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

– ta'limning davlat, jamiyat, mehnat bozori va shaxs ehtiyojlariga mosligi; ta'lim va tarbiyaning yaxlitligi, barcha uchun teng va kafolatlanganligi; ta'lim turlari va bosqichlari o'rtasida uzluksizlik hamda ta'lim mazmuni uzviyligining ta'minlanganligi; gender tenglik va inklyuziv ta'lim olish huquqlarining ta'minlanganligi; ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganligi va ta'lim oluvchilar shaxsi, intilishlari, qobiliyatlar hamda qiziqishlarining inobatga olinganligi.

Dars jarayonini ushbu tamoyillarga asoslangan holda tashkil etsakgina pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К. Ражапова Нуткий кўникмаларни ривожлантиришга тизимли ёндашишнинг илмий-методик асослари. Педагогика фанлари бўйича фал.д-ри. (PhD) диссертацияси – Жиззах, 2022

2. F.Хамроев. Умумий ўрта таълим мактабларида фонетикага доир ўқув методик таъминотни такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фал.д-ри. (PhD) диссертацияси – Самарқанд. 2019.

3.https://www.researchgate.net/publication/347453391_THE_UNITY_OF_THEME_AND_IDEA_IN_FURQAT'S_WORK?

4.https://www.researchgate.net/publication/351048479_budushcheye_tekhnicheskoy_i_gumanitar_nauki?

5.https://www.researchgate.net/publication/351048479_budushcheye_tekhnicheskoy_i_gumanitar_nauki?

QISHLOQ XO'JALIGI SOHALARIDA KASBIY MULOQOTGA O'RGATISHDA INTERFAOL YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI

Nuratdinova Jupargul Satbayevna

Nukus davlat pedagogika instituti

2- bosqich doktoranti

Annotatsiya:

Tezis qishloq xo'jaligi yo'nalishlarining talabalari uchun kasbiy muloqotni o'qitishda interfaol yondashuvning o'ziga xosligiga bag'ishlangan. An'anaviy o'qitish usullarida asosiy e'tibor nazariy bilimlarga qaratiladi, bu talabalarining samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli emas. Rolli o'yinlar, guruh loyihalari va muzokaralarni modellashtirish kabi interfaol usullar talabalarga agrar saho uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni taklif etadi. Shuningdek, motivatsiyani oshirish, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish kabi interfaol yondashuvning psixologik va pedagogik afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *interfaol ta'lim, kasbiy muloqot, qishloq xo'jaligi yo'nalishlari, rolli o'yinlar, guruh loyihalari, muzokaralarni modellashtirish, muloqot qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash*

Annotation:

The thesis is devoted to the uniqueness of the interactive approach in teaching professional communication for students of agricultural fields. Traditional teaching methods focus on theoretical knowledge, which is not enough to develop students' effective communication skills. Interactive methods such as role-plays, group projects and negotiation modeling offer a practice-oriented approach that allows students to develop skills important for the agricultural sector. Also,